

DAVLAT VA NODAVLAT TASHKILOTLAR

STATE AND NON-GOVERNMENTAL ORGANIZATIONS

ГОСУДАРСТВЕННЫЕ И НЕГОСУДАРСТВЕННЫЕ ОРГАНИЗАЦИИ

Asqarova Malohat Muhiddin qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti sotsiologiya yo'nalishi 3-bosqich talabasi
asqarovamalohat84@gmail.com*

Annotatsiya. *Mazkur ishda davlat va nodavlat tashkilotlarning mazmun- mohiyati, ularning jamiyatdagi o'рни, o'ziga xos belgilari, asosiy vazifalari, boshqaruv mexanizmlari va o'zaro hamkorlik tamoyillari tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekiston sharoitida davlat boshqaruvi tizimi modernizatsiyasi, fuqarolik jamiyati institutlarning rivojlanishi, nodavlat notijorat tashkilotlari rolini kuchaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar ilmiy asosda yoritib beriladi. Ish yakunida davlat va nodavlat sektorning o'zaro integratsiyalashuvi, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka ta'siri va istiqbollari xulosa qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Davlat tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, davlat boshqaruvi, fuqarolik jamiyati, boshqaruv tizimi, ijtimoiy insitutlar, jamiyat taraqqiyoti, modernizatsiya, jamoatchilik nazorati, boshqaruv tamoyillari, hamkorlik mexanizmlari.*

Annotation. *This work analyzes the essence of state and non-state organizations, their role in society, their distinctive features, main tasks, management mechanisms and principles of mutual cooperation. Also, the reforms being implemented in Uzbekistan to modernize the state administration system, develop civil society institutions, and strengthen the role of non-governmental non-profit organizations are scientifically highlighted. At the end of the work, the integration of the state and non-governmental sectors, their impact on socio-economic stability and prospects are summarized.*

Key words: *Government organizations, non-governmental organizations, public administration, civil society, management system, social institutions, social development, modernization, public control, management principles, cooperation mechanisms.*

Аннотация. *В работе анализируются сущность государственных и негосударственных организаций, их роль в обществе, отличительные черты, основные задачи, механизмы управления и принципы взаимного сотрудничества. Также научно освещаются проводимые в Узбекистане реформы по модернизации системы государственного управления, развитию институтов гражданского общества, усилению роли негосударственных некоммерческих организаций. В заключение работы обобщаются вопросы интеграции государственного и*

негосударственного секторов, их влияния на социально-экономическую стабильность и перспективы.

Ключевые слова: *Государственные организации, неправительственные организации, государственное управление, гражданское общество, система управления, социальные институты, социальное развитие, модернизация, общественный контроль, принципы управления, механизмы сотрудничества*

KIRISH

Davlat tashkilotlari hukumat tomonidan tashkil etilgan bo'lib, davlat manfaatlari uchun ishlaydi, davlat nazoratida bo'ladi, bo'lsa-da, nodavlat tashkilotlar mustaqil, notijorat, jamiyatning turli manfaatlarini himoya qiluvchi tashkilotlardir. Nodavlat tashkilotlari jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriy ravishda tuziladi, daromadni o'z a'zolari o'rtasida taqsimlamaydi va ko'pincha ijtimoiy, madaniy, xayriya kabi maqsadlarga xizmat qiladi.

Nodavlat notijorat tashkilot – bu rasmiy davlat muassasalardan mustaqil tarzda faoliyat yurituvchi, o'zlarining siyosiy, ijtimoiy, madaniy, huquqiy va ekologik maqsadlariga mos ravishda lobbichilik, ishontirish orqali ish olib boruvchi va o'z sohasi uchun kerakli xodimlarni jalb qiluvchi nodavlat notijorat tashkilot sanaladi. Ular o'z daromadlarini xayriya qiladigan yoki a'zolik to'lovlarini ta'minlovchi notijorat tashkilotlardir.

Nodavlat notijorat tashkilotlari palata, fond va uyushma nomi ostida faoliyat yuritadi. Jamg'armalar va uyushmalar jamiyatga foydali xizmat ko'rsatishni rivojlantirish va fuqarolarga yordam berish maqsadida tashkil etilgan yuridik jamiyatlardir. Nodavlat notijorat tashkilot, jismoniy va yoki yuridik shaxslar tomonidan shaxsiy manfaatlarga asoslanmagan holda tashkil etiluvchi tashkilot. Daromad olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan, shuningdek, olingan foydani o'z tarkibidagi kishilar o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini o'zi boshqaruvchi muassasadir⁶⁰

Davlat va nodavlat tashkilotlar zamonaviy jamiyatning institutsional tuzilmasini shakllantiruvchi eng muhim ikki sektor hisoblanadi. Davlat tashkilotlari mamlakatning siyosiy boshqaruvi, ijtimoiy himoya, iqtisodiy rivojlanish va xavfsizlikni ta'minlash kabi strategik vazifalarni bajaradi. Nodavlat notijorat tashkilotlar (NNT) esa fuqarolik jamiyatining asosiy bo'g'ini bo'lib, aholining turli qatlamlari manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy muammolarni tezkor aniqlash va hal etishda davlat sektoriga samarali yordamchi sifatida maydonga chiqadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda davlat va nodavlat sektorlarning o'zaro hamkorligi kuchayib, ijtimoiy sheriklikning institutsional asoslari mustahkamlandi. OECD (2024) hisobotiga ko'ra, O'zbekistonda jamoatchilikning qaror qabul qilish jarayonlariga jalb etishi ortib, davlat boshqaruvida ochiqlik va samaradorlik ko'rsatkichlari yaxshilangan.⁶¹ Shu bilan birga, G'o'chchiyev (2023) olib brogan tadqiqotida takidlashicha, nodavlat tashkilotlar

⁶⁰ Lex.uz/<https://lex.uz/acts/-11360>

⁶¹ OECD. Public Governance Reviews: Uzbekistan. Paris: OECD Publishing, 2024.

mustaqillikning so'nggi bosqichlarida, ayniqsa 2020-yildan keyin, ijtimoiy loyihalar, huquqiy madaniyat va ijtimoiy himoyani kuchaytirishda yanada faollashgan.⁶²

Moliyaviy barqarorlik ham NNTlar uchun muhim masala bo'lib, Aliyev (2024) tadqiqotida nodavlat tashkilotlar grantlar, xayriya, homiylik va xalqaro donorlarning ko'magiga tayanishi, ammo strategik moliyaviy boshqaruv ko'nikmalari yetarli darajada rivojlanmaganini qayd etadi.⁶³ Jamoatchilik nazorati va davlat-jamiyat hamkorligining kuchayishi esa Umarov va Xabibullayeva (2024) tomonidan davlat boshqaruvi samaradorligini oshiruvchi omil sifatida baholanadi.⁶⁴

Shu sababli, davlat va nodavlat tashkilotlarning mohiyati, vazifalari, o'zaro farqlari va hamkorlik mexanizmlarini o'rganish hozirgi davr uchun dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. Davlat tashkilotlari davlat vakolatlari doirasida faoliyat yuritadi, qonun bilan belgilangan funksiyalarga ega va moliyalashtirilishi davlat budjeti hisobidan amalga oshiriladi.

V.M.Лопин. Государственные и муниципальные организации (2025)-muallif davlat tashkilotlarining strukturasi, boshqaruv tizimini va samaradorlik mezonlarini batafsil tahlil qiladi.

A.Sh. Qodirov. Davlat boshqaruvi va uning institutsional asoslari (2018) – davlat tashkilotlari faoliyati va ularning normative- huquqiy bazasi haqida ma'lumot beradi. Adabiyotlarda davlat tashkilotlariga ko'proq strukturaviy, huquqiy va funksional jihatdan tahlil qilingan. Ularning samaradorligi ko'pincha resurslarni boshqarish, xizmat ko'rsatish sifatiga bog'liq deb hisoblanadi.

Nodavlat tashkilotlari (NNT) davlatdan mustaqil bo'lib, fuqarolar va ijtimoiy guruhlarining ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan. Ular notijorat yoki ijtimoiy loyihalarni amalga oshiradi.

Salamon, L. The Nonprofit Sector: A Research Handbook (2012) – nodavlat tashkilotlar iqtisodiyotdagi roli, moliyalashtirish manbalari va samaradorlik mezonlari haqida.

E. Ansoff. Nodavlat tashkilotlar va jamiyat (2016)- NNTlarning ijtimoiy ahamiyati va davlat bilan hamkorligi tahlili. NNTlar asosan ijtimoiy, ekologik, madaniy yoki ta'lim sohalarida faoliyat ko'rsatadi. Adabiyotlarda ularning samaradorligi, moliyaviy mustaqilligi va fuqarolar bilan aloqalari ustuvor mavzu hisoblanadi. NNTlarning davlat tashkilotlariga nisbatan ko'proq moslashuvchan va innovatsion ekanligi ta'kidlanadi.

Davlat tashkilotlari davlat budjeti hisobidan moliyalashtiriladi, qonunchilik va normative hujjatlar bilan boshqariladi.

Lapin (2015) davlat va munitsipal tashkilotlar strukturasi, boshqaruv tizimini va samaradorlik mezonlarini batafsil tahlil qiladi. Muallifning fikricha, samaradorlik asosan resurslarni boshqarish va xizmat ko'rsatish sifati bilan belgilanadi.⁶⁵

⁶² G'o'chchiyev, Z. "O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarining shakllanish evolyutsiyasi (1991-2023)." Yangi izlanuvchi, 2023.

⁶³ Aliyev, A. "O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarini moliyalashtirish manbalari tahlili". Green Economy and Development Journal, 2024

⁶⁴ Umarov, M. Xabibullayeva, M. "Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishda jamoatchilik nazorati". ResearchWeb Scientific Journal, 2024.

⁶⁵ Lapin, V.M. Gosudarstvennye i munitsipalnye organizatsii. Moscow: Yurait, 2015.

Qodirov (2018) davlat boshqaruvi va uning institutsional asoslarini o'rganadi. Davlat tashkilotlari ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi, biroq ular ko'pincha moslashuvchanlik va innovatsiya jihatdan cheklangan. Davlat tashkilotlari tizimli va nazoratga asoslangan faoliyat yuritadi. Ularning samaradorligi strukturaviy va huquqiy omillarga bo'g'liq.

Metod va materiallar. Davlat tashkilotlari faoliyatini o'rganishda eng asosiy tadqiqot materiali bu rasmiy hujjatlar hisoblanadi. Ular tashkilotlarning vazifalari, strukturasi, moliyaviy resurslari va xizmat ko'rsaytish tizimini aniqlashda ishlatiladi. Hujjat turlari:

1. Normativ- huquqiy hujjatlar:

Qonunlar, president farmoyishlari, hukumat qarorlari, vazirlik farmoyishlari. Masalan; "davlat boshqaruvi to'g'risida"gi qonun, soliq va moliya tizimini tartibga soluvchi qarorlar. Ushbu hujjatlar davlat tashkilotlarining vazifalari va vakolatlarini belgilaydi

2. Strategik rivojlanish dasturlari va rejalar:

Davlat tashkilotlarining uzoq muddatli rivojlanish maqsadlari va strategik yo'nalishlari. Masalan; iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy xizmatlar, sog'liqni saqlash va ta'lim sohasidagi dasturlar. Shu dasturlar orqali tashkilotning faoliyat yo'nalishlari va resurslarni taqsimlash asoslari aniqlandi.⁶⁶

3. Hujjatlarning tadqiqotdagi ahamiyati:

Strukturaviy tahlil: hujjatlar orqali tashkilotning bo'limlari, ularning vazifalari va boshqaruv tizimi aniqlanadi. Budjet va moliyaviy hisobotlar yordamida resurslar samarali ishlatilayotganligi baholanadi. Qonun va qarorlar orqali davlat siyosati va jamiyatga xizmat ko'rsatish yo'nalishlari tushuniladi.

4. Nodavlat tashkilotlar faoliyatiga oid materiallar:

Moliyaviy hisobotlar, loyihalar va grant hisobotlari. Nodavlat notijorat tashkilotlar amalga oshirgan loyihalar natijasi, qamrab olingan aholi soni, samaradorlik ko'rsatkichlari. Bu materiallar nodavlat notijorat tashkilotlarning jamiyatdagi roli va ijtimoiy ta'sirini o'rganishda ishlatiladi.⁶⁷

5. Ilmiy adabiyotlar va tadqiqot maqolalari:

Davlat va nodavlat notijorat tashkilotlarning samaradorligi, struktura, faoliyat ko'lamini va hamkorlik shakllarini yoritadi.⁶⁸ Shu materiallar tadqiqotning nazariy bazasini mustahkamlash va ilmiy asosli xulosalar chiqarish imkonini beradi.

6. Hujjatlarni tahlil qilish:

Hujjatlarni tahlil qilish- bu ilmiy tadqiqotlarda keng qo'llanilgan metod bolib, u orqali mavjud rasmiy materiallar, hujjatlar va hisobotlar o'rganiladi. Davlat va nodavlat tashkilotlar faoliyatini o'rganishda bu metod asosiy tadqiqot vositasi hisoblanadi. Bu metodning afzalligi shundaki, u obyektiv va tekshiriladigan ma'lumot asosida xulosalar chiqarish imkonini beradi, shuningdek, tadqiqot xarajatlarini kamaytiradi, chunki materiallar odatda rasmiy manbalardan olinadi.

⁶⁶ Lapin, V.M. Gosudarstvennye I munitsipalnye organizatsii. Moscow: Yurait, 2015.

⁶⁷ Qodirov, A.Sh. Davlat boshqaruvi va uning institutsional asoslari. Toshkent: Fan, 2018

⁶⁸ Ansoff, E. Nodavlat tashkilotlar va jamiyat. London: Routledge, 2016

7. Taqqoslash metodi:

Taqqoslash metodi- bu tadqiqot metodlaridan biri bo'lib, u orqali turli obyektlar, tizimlar yoki tashkilotlarning faoliyati va xususiyatlari solishtiriladi. Davlat va nodavlat tashkilotlar faoliyatini o'rganishda bu metod juda muhim, chunki u tashkilotlar o'rtasidagi farqlar, afzalliklar va kamchiliklarni aniqlashga yordam beradi.

Ushbu foydalanilgan materiallar va metodlar davlat va nodavlat tashkilotlarning faoliyatini tizimli, ilmiy asosda tahlil qilish imkonini beradi. Huquqiy hujjatlar, qonunlar va normativ hujjatlar NNTlar va davlat tashkilotlarining rasmiy faoliyati kontekstini aniqlashda asos bo'ladi. 2020-2025-yillardagi ilmiy maqolalar, hisobotlar (OECD, UNDP, World Bank) tadqiqotning nazariy asosini mustahkamladi. Tadqiqot metodlari va ishlatilgan materiallar davlat va nodavlat tashkilotlarning faoliyatini tizimli, ilmiy asosda yoritishga yetarli va samarali bo'ladi hamda keying bo'limlar (tahlil va xulosa) uchun mustahkam poydevor yaratdi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytganda davlat va nodavlat tashkilotlarning mohiyati, ularning jamiyatdagi roli, funksional vazifalari va o'zaro hamkorlik mexanizmlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki: Davlat tashkilotlari mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini ta'minlovchi markaziy institute sifatida xizmat qiladi. Ularning asosiy vazifalari qonun ustuvorligini ta'minlash, ijtimoiy himoyani kuchaytirish, iqtisodiy siyosatni tartibga solish va aholiga majburiy davlat xizmatlarini ko'rsatishdan iborat. Nodavlat notijorat tashkilotlar fuqarolik jamiyatining, ko'ngilli va jamiyat manfaatlariga xizmat qiluvchi tashkilotlar sifatida shakllangan. Tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, NNTlar ijtimoiy yordam, ekologik muhofaza, yoshlar va ayollar bilan ishlash, jamoatchilik nazorati va huquqiy madaniyatni oshirish kabi yo'nalishlarda faoliyat yuritadi.

Davlat va nodavlat tashkilotlar jamiyatning ikki muhim institutsional qatlami bo'lib, ular o'zaro hamkorlik orqali ijtimoiy, iqtisodiy va demokratik rivojlanishni ta'minlaydilar. Tadqiqot shuni isbotlaydiki, NNTlar davlatning ijtimoiy siyosatidagi hamkorlari sifatida barqaror va samarali faoliyat yuritishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. OECD. Public Governance Reviews: Uzbekistan. Paris: OECD Publishing, 2024.
2. G'o'chchiyev, Z. "O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlarining shakllanish evolyutsiyasi (1991–2023)." Yangi Izlanuvchi Ilmiy Jurnali, 2023.
3. Aliyev, A. "O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarini moliyalashtirish manbalari tahlili." Green Economy and Development Journal, 2024.
4. Xusanov, O. "Nodavlat notijorat tashkilotlarning rivojlanishi va hozirgi shart-sharoitlar." Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot, 2023.
5. Umarov, M., & Xabibullayeva, M. "Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishda jamoatchilik nazorati roli." ResearchWeb Scientific Journal, 2024.

6. Samadova, T. “O‘zbekistonda ijtimoiy sohada NNTlarning roli evolyutsiyasi (1991–2024).” World Scientific Research Journal, 2025.
7. Xusanova, G. “NNTlarni moliyaviy ta‘minlash mexanizmlari va ularni takomillashtirish.” Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot, 2024.
8. Рак, Р. “Общественное мнение о ННО и общественном контроле.” Социология и Исследования Журналы, 2023.
9. World Bank. Uzbekistan Public Sector Reform Progress Report. Washington D.C., 2022.
10. UNDP Uzbekistan. Civil Society Support and Development Report 2023. Tashkent: UNDP, 2023.